

## **BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTLARINI MHXS GA UYG‘UNLASHTIRISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**S. R. Egamberdiyeva**

*Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent QarMII “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi*

**F. I. Qodirov, R. R. Shopiyev**

*QarMII Buxgalteriya hisobi va audit mutaxassisligi magistrantlari*

**A R T I C L E I N F O.**

**Kalit so‘zlar:**

Xalqaro buxgalteriya hisobi va hisoboti, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari qo‘mitasi (IASC).

**Annotatsiya**

Maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining (MHXS) mohiyati, ularning tarkibi va tasnifi keltirilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXS ga uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirish va bu boroda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar tavsifi bayon kilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

**Kirish.** Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida turli mamlakatlarda sifatli, taqqoslanadigan va ishonchli hamda uyg‘un axborotlarni shakllantirishda yagona yondashuvni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday imkoniyatga faqat moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) tan olish va unga muvofiq holda hisobotlar tuzish orqali erishish mumkin. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunning yangi tahririda ham buxgalteriya hisobi subyektlari belgilangan tartibda MHXS larni qo‘llash mumkinligi e’tirof etildi.[1.10-modda]

MHXS larni qo‘llash zaruriyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- turli mamlakatlarda investorlar va aksionerlar potensial kompaniyalarning bir xil tamoyillar, ya’ni taqqoslanuvchanlik asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotni yaxshiroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- turli mamlakatlarda turli fond birjalariga ularning har biriga o‘scha mamlakatning standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotdan ko‘ra hammasi uchun yagona tan olinadigan bitta moliyaviy hisobotni tuzish maqsadga muvofiqdir. Natijada hisobotni tuzish xarajatlari qisqaradi va kapitalni jalg qilish imkoniyatlari kengayadi. O‘z korxonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning jalg qilinishini ta’minlash uchun faoliyat yuritaётgan korxonalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga asosan transformatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqibmazkur mavzuda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Amaliyotda korxonalarda tashkil etilgan xo‘jalik subyektlarining moliyaviy hisobotlariga oid ayrim mulohazali holatlar mavjud. Buxgalteriya hisobiga oid amalda bo‘lgan qonunchilikka ko‘ra, korxonalar milliy èki xalqaro standartlarga asosan buxgalteriya hisobini tashkil etishi, yuritishi va moliyaviy hisobotlarni tuzishlari mumkinligi qayd etilgan.[1.] Ammo, soliq qonunchiligiga ko‘ra, har bir korxona o‘z faoliyatiga oid moliyaviy va soliq hisobotlarini buxgalteriya hisobining milliy standartlariga asosan soliq idoralariga taqdim etishlari belgilab qo‘yilgan. Bundan ko‘rinadiki, xo‘jalik subyektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlariga asosan buxgalteriya hisobini tashkil etadi va yuritadi, moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzadi. Agarda zarurat tug‘ilsa, parallel ravishda xorijiy investorlar uchun moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga asosan moliyaviy hisobotlarni shakllantirib borishlari mumkin. Ammo, bu jaraèn murakkab hisob-kitoblar va ko‘p mehnat talab etadi. Shu sababdan, xo‘jalik subyektlari parallel ravishda xaqaro standartlarga asosan moliyaviy hisobotlarni tuzishdan ko‘ra, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga asosan transformatsiya qilishlari qulay va kam chiqim hisoblanadi.

S.Tashnazarov moliyaviy hisobotni MHXS bo‘yicha transformatsiyasi va konsolidatsiyasi masalalari, moliyaviy hisobotning MHXS bo‘yicha transformatsiyasi mohiyati va bosqichlari, moliyaviy hisobot (moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot) konsolidatsiyasi va moliyaviy hisobotning koeffitsiyentlarini atroflicha tadqiq etilgan.[4.]

Globalizatsiya sharoitida Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning milliy standartlarini MHXS ga uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirishni tadqiq etish dolzarb sanaladi.

**Tahlil va natijalar.** Xalqaro moliyaviy hisobot deganda, MHXS yoki AQShning GAAP standartlariga muvofiq holda tuzilgan moliyaviy hisobotga aytildi. Ushbu ikki turdag'i standart dunyodagi barcha fond birjalar uchun moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish qoidalarini tartibga soladi va shu birjalar tomonidan tan olinadi.

MHXSlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar investitsion muhitni yaxshilaydi. Mamlakatga yirik kompaniyalar tomonidan investitsiyalarning kirib kelishiga imkoniyat yaratadi.

MHXSlar Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari kumitasi tomonidan ishlab chiqiladi.

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari qo‘mitasi (IASC) - butun dunyodagi buxgalteriya hisobi sohasi faoliyatidagi vakillardan iborat a’zolarni birlashtirgan, hukumatga oid bo‘limgan xalkqaro buxgalteriya hisobi tashkiloti bo‘lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini ishlab chiqish, qabul qilish va doimiy takomillashtirib borish hisoblanadi.

IASC bosh qarorgoxi London shahrida joylashgan. Bu xalqaro tashkilotning Kengashiga global tashkilot va kompaniyalarda, dunyo banklarida katta mansablarda ishlagan yuqori obro‘-e’tibor va malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar jalb qilingan.

1975 yilda qo‘mita tomonidan birinchi buxgalteriya hisobining xalqaro standarti - «Hisob siyosatining ochiqlanishi» nashr etildi.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida «Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari kursi» alohida fan sifatida o‘rganilmoqda. Fikrimizcha, ushbu kurs «Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti» fanining ma’lum bir qismmini o‘rganadigan bo‘lim bo‘lib hisoblanishi kerak.

Ma’lumki, moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti moliyaviy hisobotning standartlari asosida yuritiladigan tizim sifatida tavsiflangan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisobotining meyoriy-huquqiy asosini tashkil etadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari «Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti» fanining

bo‘limi sifatida uning predmeti bo‘lib, xalqaro standartlarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladigan obyektlar hisoblanadi. Ushbu obyektlarga moliyaviy hisobotning elementlari hisoblangan pul mablag‘lari, baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar, shartli aktivlar, valyuta kursi o‘zgarishi, zaxiralar, qurilish shartnomalari, asosiy vositalar, aktivlarning qadrsizlanishi, nomoddiy aktivlar, segmentlar, davlat subsidiyalari va davlat yordamlari, tushumlar, karzlar bo‘yicha xarajatlar, foya solig‘i, moliyaviy instrumentlar, bog‘lik tomonlar, korxonalarining birlashishi, hisob siyosati va unda yo‘l qo‘yilgan xatolar, oraliq moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobot konsolidatsiyasi, inflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot va boshqa obyektlarni kiritish mumkin.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o‘rganadigan muhim obyektlardan biri moliyaviy hisobotni taqdim etish, hisob siyosati, konseptual asoslari masalalari bo‘lib hisoblanadi. Bularga pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot, oralik moliyaviy hisobot, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, giperinflyatsiya sharoitidagi moliyaviy hisobot, korxonalar birlashganda va qo‘shilgandagi moliyaviy hisobot, segmentar moliyaviy hisobot, qo‘shma faoliyatda moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik masalalarini kiritishimiz mumkin. Bularning har biri alohida xalqaro standartlarda o‘rganiladigan obyektlar hisoblanadi.

1-son Buxgalteriya hisobi xalqaro standartining (BHXS) «Moliyaviy hisobotni taqdim etish» bo‘limida «umumiyl foydalanishdagi moliyaviy hisobot» tushunchasi kiritilgan bo‘lib, unga quyidagicha ta’rif berilgan: «Umumiyl foydalanishdagi moliyaviy hisobot - bu shunday foydalanuvchilarining ehtiyojini kondirishga qaratilganki, qaysiki ular o‘zlarining aniq axborot ehtiyojlariga to‘liq javob beradigan hisobotlarni taqdim qilishni talab etish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi».

Bunday moliyaviy hisobot bir yilda bir martadan kam bo‘limgan holda tayyorlanadi hamda taqdim qilinadi va keng doiradagi axborot foydalanuvchilarining umumiyl bo‘lgan axborot ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Ko‘p foydalanuvchilar moliyaviy hisobotni moliyaviy axborotlarning bosh manbai sifatida qaraydilar. Shu bois, moliyaviy hisobot ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tayyorlanishi va taqdim qilinishi shart.

Ushbu hujjatda umumiyl foydalanishdagi moliyaviy hisobotning maqsadi quyidagicha izohlanadi: «Moliyaviy hisobot tashkilotning moliyaviy holati va faoliyatining moliyaviy natijalarini strukturalashtirilgan holda taqdim qilishdir. Umumiyl foydalanishdagi moliyaviy hisobotning maqsadi tashkilotning moliyaviy holati, uning faoliyati, moliyaviy natijalari va pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida shunday axborotlarni taqdim qilish hisoblanadiki, ular ushbu ma’lumotlar keng axborot foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo‘ladi. Moliyaviy hisobot, shuningdek, tashkilot rahbariyatiga ishonch bildirilgan resurslarni boshqarish natijalarini ham ko‘rsatadi. Ushbu maqsadga erishish uchun moliyaviy hisobot tashkilotning quyidagi ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi axborotlarni ta’minlaydi:

- a) aktivlar;
- b) majburiyatlar;
- c) xususiy kapital;
- d) daromad va xarajatlar, foya va zararlarni ham hz ichiga oladi;
- e) xususiy kapitaldagi boshqa o‘zgarishlar;
- f) pul mablag‘lari harakati».

Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilishning konseptual asoslari hujjatida moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qatoriga potensial sarmoyadorlar, kreditorlar, ta’mintonchilar, xaridorlar, xodimlar va hukumat muassasalari, vazirliklar, tashkilotlar, jamoatchilik va boshka foydalanuvchilar kiritiladi.[3]

1-son MHXS «Moliyaviy hisobotning taqdim etilishi» (51-53-§)da moliyaviy hisobotning rekvizitlari keltirilgan. Moliyaviy hisobot quyidagi ko'rsatkichlarni albatta qamrab olishi kerak:

- hisobot berayotgan korxonaning nomi yoki uni belgilashning har qanday usuli;
- moliyaviy hisobot alohida korxonaga yoki korxonalar guruhiga taalluqligi;
- hisobot davrining tugallanish sanasi yoki moliyaviy hisobot qamrab olingan davr yoki izohlarda keltiriladi;
- 21-son MHXSda aniqlangandek hisobotda taqdim etiladigan valyuta;
- valyutaning yaxlitlanishi.

Moliyaviy hisobot har yili bir martadan kam bo'limgan tartibda taqdim qilinishi shart (36-37-§). Agarda hisobot beruvchi tashkilotning hisobot sanasi o'zgarsa va yillik moliyaviy hisobot bir yildan oshuvchi yoki undan kamroq davr uchun taqdim etilsa, tashkilot quyidagi axborotlarni ochiqlashi talab etiladi:

- oshib ketgan yoki qisqartirilgan davrdan foydalanishning sabablari;
- foyda va zararlar to'g'risidagi, xususiy kapital o'zgarishi to'g'risidagi, pul mablag'lari xarakati to'g'risidagi hisobotlar va tegishli izohlarda taqqoslanadigan summalar to'liq bo'limgan holda taqqoslanuvchi ekanligi fakti.

1-son MHXSda «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - bu Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qo'mitasi tomonidan qabul qilingan standartlar va interpretatsiyalardir» deb ta'rif berilgan. Ularga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS);
- buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (IAS);
- Interpretatsiyalar (SIC).

BHXSlar (IAS - International Accounting Standards) Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari bo'yicha Qo'mita (BHXSK) (IASC) tomonidan ishlab chiqiladi. BHXSK tomonidan tayyorlagan va rus tiliga tarjima qilingan Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga tushuntirishlarda, rus tiliga tarjima qilingan BHXSlarda 2016 yil fevral holati bo'yicha 29 ta BHXS, 12 ta Moliyaviy hisobot xalqaro standarti (MHXS), 8 ta standartlarga izoh (SIC) nashr qilinganligi ko'rsatilgan.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini fundamental asoslari, moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilish hamda aniq obyektlarni hisobga olishga mo'ljallanganligiga qarab quyidagi oltita guruxga ajratish mumkin:

I. Moliyaviy buxgalteriya hisobining fundamental asoslarini ifodalovchi standart - ushbu guruxga 1 ta standart kiritilgan.

II. Moliyaviy hisobotni taqdim qilish va undagi axborotlar tavsifini ifodalovchi standartlar - ushbu gurux o'z ichiga 10 ta standartni oladi.

III. Aktivlar, majburiyatlar va investitsiyalarga doir standartlar - ushbu guruxga 9 ta standart kiritilgan.

IV. Daromad va xaratatlarga doir standartlar - bu guruxga 5 ta standart kiritilgan.

V. Moliyaviy instrumentlarga doir standartlar - ushbu guruxga 2 ta standart kiritilgan.

VI. Biznes birlashishlari va qo'shma korxonalar moliyaviy hisobotiga doir standartlar - ushbu guruh o'z ichiga 2 ta standartni oladi.

MHXS buxgalteriya hisobining jahon yutuqlari asosida turli mamlakatlarda joylashgan axborot foydalanuvchilar uchun axborotlarni tayyorlash va taqdim qilishining umumiyligini qoida va tamoyillarini

belgilash tizimidir. MHXSlarga rioya qilish majburiy-huquqiy xarakterga ega bo‘lmasdan, ular tavsiyanoma xarakteriga ega.

MHXSlarning turli xil milliy hisob tizimiga ega bo‘lgan mamlakatlarda qo‘llanilishi ko‘zda tutilganligi sababli ular tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ham barcha uchun bir xil bo‘lishi kerak. Harakatdagi xalqaro standartlar tarkibi bo‘yicha uch qismidan iborat. Birinchi qism - kirish, ikkinchi qism - hisob obyektining tavsifi (ochilishi), uchinchi qism - buxgalteriya hisobi standarti (xulosasi) deb ataladi.

MHXSlar o‘zlarining o‘ta muvofiqligi bilan ajralib turadi. Xalqaro standartlar ushbu soha bo‘yicha eng asosiy va umumiy yo‘nalishlarni belgilaydi. MHXSlarni ishlab chiqishga bunday yondashish ularning turli mamlakatlarda qo‘llanilish imkoniyatini oshiradi va milliy hisob standartlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini oshiradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi paytda nashr qilingan MHXSlar bir-biriga bog‘likdir va birgalikda yagona tizimni tashkil etadi. Shunday qilib, bitta standartning qo‘llanilishi shu uzlusiz tizimning boshqa qismlarini qo‘llashni talab

qiladi, ya’ni bitta standartni boshqa standartlardan ajratib olgan holda qo‘llash mumkin bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida MHXSlarga o‘tishda o‘ziga xos va milliy iqtisodiyotimizga mos yo‘l tanlandi. Bu xalqaro standartlarga muvofiq keladigan buxgalteriya hisobi bo‘yicha milliy standartlarni ishlab chiqish va amaliyatga joriy qilish yo‘li bo‘ldi. Hozirgi kunda ishlab chiqilgan milliy standartlarimiz xalqaro standartlarga muvofik, keladi.[2] Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda korporativ boshqaruvga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzishga o‘tilmoqda. Bu esa bevosita xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish orqali erishilishi mumkin. Birinchi yo‘l xalqaro standartlar asosida to‘g‘ri va sifatli moliyaviy hisobot tuzishga erishishni ta’minlaydi. Ikkinci yo‘lda esa transformatsiya jarayonida ko‘plab muammo va to‘sqliarga duch kelish mumkin. Lekin ikkita yo‘lning yechimida ham xalqaro standartlarning mazmun va mohiyatini chuqur o‘rganish, uning metodologik masalalarini qo‘llay olish, milliy standartlarimizni imkon qadar xalqaro standartlarga muvofiklashtirishimiz, dunyo universitetlarida qo‘tilayotgan «Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti» fanini o‘rganishimiz, ingliz tilidagi adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishimiz, buxgalteriya hisobi sohasida xalqaro atamalarni qabul qilishimiz, amaliyotchi xodimlar va ilmiy tadkikotchilarni xorijiy mamlakatlarda tajriba almashinishini tashkil etishimiz, amaliyotchi buxgalterlarni sertifikatlash ishlarini yo‘lga qo‘yishimiz kerak bo‘ladi.

Korxonalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: xo‘jalik subyektlarining buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritilishi va moliyaviy hisobotlari to‘g‘ri shakllantirilishini ta’minalash; moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish uchun axborotlarni to‘plash, qayta ishslash va guruhash, baholash, buxgalteriya o‘tkazmalari va xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlar tuzish kabi bosqichlarga ajratish zarur; xo‘jalik subyektlari o‘zining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati xususiyati, resurslari va xodimlarining kasbiy mahorati darajasidan kelib chiqib transformatsiya qilish tartibini ishlab chiqishi lozim; xo‘jalik subyektlari moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish bo‘yicha hisob siёsatini ishlab chiqishi talab etiladi.

Yuqoridaq takliflarni amalda ijrosini ta’minalash xo‘jalik subyektlarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga asosan takomillashtirishga hamda xorijiy investorlar uchun moliyaviy hisobot axborotlarining ochiq va oshkora bo‘lishini ta’minalashga, pirovard natijada esa korxonalarining resurslari va iqtisodiy salohiyatini maqsadli yo‘naltirishga, xorijiy investorlarga kafolatli axborot berish orqali investitsiyalar hajmining ortishiga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni, 10-modda. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 9-son, 142-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari to‘plami. -T.: «NORMA», 2011.
3. Международные стандарты финансовой отчетности: Издание на русском языке. - М.: «АСКЕРИ-ACCA», 2016.
4. Tashnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti: xalqaro va milliy jihatlari. Monografiya. - T.: «Iktisod-Moliya», 2009 y. -168-b.